

**WORLDVIEW IN THE INTRODUCTION: ROOTS OF THE SPIRITUAL  
HERITAGE OF YUSUF KHOS HAJIB**

*Shukrullayeva Malika Sherali qizi*

*Master's student at Tashkent State University of Oriental Studies.*

**Annotation:** This article analyzes the prologue of Yusuf Khass Hajib's *Qutadghu Bilig*, focusing on its compositional structure, philosophical content, and ideological foundations. The study highlights how key concepts such as justice, knowledge, wisdom, contentment, and speech ethics are intertwined with the poem's main ideas. The author demonstrates the significance of the prologue not merely as an introduction, but as a foundation for the work's ethical and political worldview.

**Keywords:** *Qutadghu Bilig*, prologue, Yusuf Khass Hajib, justice, knowledge, Turkic literature, political philosophy.

**МИРОВОЗЗРЕНИЕ ВО ВВЕДЕНИИ: КОРНИ ДУХОВНОГО НАСЛЕДИЯ  
ЮСУФА ХОС ХАДЖИБА.**

*Шукруллаева Малика Шерали кызы*

*Магистрант Ташкентского государственного университета востоковедения.*

**Аннотация:** В данной статье рассматривается пролог поэмы Юсуфа Хас Ходжиба *Кутадгу билиг*, его композиционная структура, философское содержание и идеологическая направленность. Автор анализирует, как такие понятия, как справедливость, знание, мудрость, довольство и культура речи, формируют основу мировоззрения произведения. Пролог трактуется не только как вступление, но и как концептуальная платформа всей поэмы.

Ключевые слова: *Кутадгу билиг*, пролог, Юсуф Хас Ходжисб, справедливость, знание, тюркская литература, политическая философия.

**MUQADDIMADAGI DUNYOQARASH: YUSUF XOS HOJIB MA'NAVIY  
MEROSINING ILDIZLARI.**

*Shukrullayeva Malika SherAli qizi*

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asariga kirish bo‘limi — muqaddimaning kompozitsion tuzilishi, badiiy-falsafiy mazmuni va g‘oyaviy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Asarda ilgari surilgan adolat, ilm, aql, qanoat, til odobi kabi tushunchalar zamonaviy ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘lab talqin etiladi. Tadqiqotda muqaddimadagi diniy, siyosiy va ilmiy qatlamlar o‘zaro uyg‘un holda sharhlanib, dostonning ruhiy-falsafiy asoslari ochib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** *Qutadg‘u bilig, muqaddima, Yusuf Xos Hojib, adolat, bilim, axloq, turkiy adabiyot, siyosiy-falsafiy qarashlar.*

## KIRISH

Turkiy adabiyot tarixida o‘ziga xos badiiy-falsafiy maktab yaratgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari — nafaqat o‘z davrining siyosiy-ijtimoiy tafakkur namunasi, balki bugungi global muammolar fonida ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan nodir merosdir. Ushbu dostonning har bir qismi chuqur ma’no va g‘oyaviy yuklama bilan to‘la bo‘lsa, ayniqsa, asar muqaddimasi uning ideologik va ma’rifiy asoslarini anglashda alohida o‘rin egallaydi.

Sharq adabiy an’analariga xos tarzda yozilgan bu muqaddima — ilohiy hamdu sanolar, payg‘ambar va hukmdor madhiyalari, kitobning maqsad va mohiyatini bayon etuvchi nazariy-falsafiy nutq sifatida qabul qilinadi. Ammo bu qismlar faqatgina estetik rasmiyatchilik bo‘lib qolmay, asarning keyingi g‘oyaviy yo‘nalishlarini, qahramonlar konsepsiyasini, va umuman, siyosiy-axloqiy qarashlar tizimini tayyorlovchi tayanch bosqich sifatida ko‘zga tashlanadi.

Mazkur maqolada “Qutadg‘u bilig” muqaddimasining kompozitsion tuzilishi, badiiy-falsafiy mazmuni, ilm va axloq konsepsiyalari hamda sharqona kitob tuzilishidagi an’anaviy pozitsiyasi chuqur tahlil etiladi. Ayniqsa, nasriy va she’riy muqaddimalar hamda kirish qismiga oid mavzular bo‘limma-bo‘lim yoritilib, ularning har biri asarning umumiy konsepsiyasiga qanday xizmat qilishi ko‘rsatib beriladi.

Bu tadqiqot orqali o‘quvchi “Qutadg‘u bilig”ning muqaddimasi aslida qanday g‘oya va qadriyatlarni o‘zida jamlaganini, qanday tarzda asar ichidagi asosiy timsollar (adolat, davlat, aql, qanoat) bilan uzviy bog‘langanini va muallif Yusuf Xos Hojib qanday badiiy-falsafiy niyatlar bilan bu dostonni yaratganini anglash imkoniga ega bo‘ladi.

## ASOSIY QISM

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” (“Baxtga eltvuvchi bilim”) asari XI asr turkiy adabiyotining bebafo durdonasi bo‘lib, o‘z mazmun-mohiyati, shakl jihatdan murakkab tuzilishi va chuqur falsafiy g‘oyalari bilan Sharq adabiy merosining eng yuksak namunalaridan biridir.

Ushbu doston davlatniadolat asosida boshqarish, jamiyatni ma’naviy jihatdan obod etish, komil insonni tarbiyalash kabi dolzARB mavzularni ilgari suruvchi siyosiy-ma’rifiy asardir.

Asar masnaviy janrida yozilgan bo‘lib, umumiy hajmi 6520 baytdan iborat. Uning kirish qismi uch asosiy bo‘limdan tarkib topgan: nasriy muqaddima (38 satr), she’riy muqaddima (77 bayt) va muqaddimaviy boblar (11 bob, 390 bayt). Aynan mana shu kirish qismi asarning butun ‘oyaviy-falsafiy asoslarini belgilab beruvchi nazariy va ruhiy platforma hisoblanadi.

Dostonning muqaddimasi Sharq mumtoz adabiyotiga xos an’analarga to‘la sodiqlik bilan yozilgan. U avvalo Allohga hamd aytish, Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) va uning sahabalarini madh etish bilan boshlanadi. Bu diniy-tasavvufiy motivlar orqali asar ilohiy asosda barpo etilayotgani anglashiladi. So‘ngra asarning homiysi, Qoraxoniyalar sulolasidan bo‘lgan Tavg‘ach Bug‘raxon madh etiladi. Bu qismda muallif hukmdorni “ezgulik,adolat va bilim homiysi” sifatida tasvirlaydi.

Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari o‘z davrining siyosiy-axloqiy qarashlarini aks ettirgan ulug‘ asar bo‘lib, turkiy adabiyot tarixida alohida o‘rin egallaydi. Tadqiqotchilar ushbu asarning turli davrlarda va mintaqalarda qanday qabul qilingani, unga berilgan nomlar orqali ham ifodalanganini ta’kidlashadi. Ayrim adabiy manbalarda bu asarga xilma-xil nomlar berilgani haqida ma’lumotlar uchraydi. Masalan, xitoylar uni “Adab ul-muluk”, eronliklar “Shohnoma-yi turkiy”, mashriqliklar “Ziynat ul-umaro” deb atagani aytildi. Biroq, bu nomlar tarixiy qo‘lyozmalarda bevosita hujjatli shaklda uchramaydi va ularning aksariyati keyinchalik shakllangan ta’rifiy-atama darajasidadir.

Yusuf Hos Hojibning hayoti hamda “Qutadg‘u bilig” dostoni A.Vamberi, V. Radlov, A. Bombachi, S.E. Malov, V.V. Bartold, A. Samaylovich, N.A. Yudahin, N.A.Baskakov, A.N.Kononov, E.R.Teneshev, A.Valitova, I.V.Stebleva, S.N. Ivanov, M.F.Kuprulizoda, Q. Karimov, B. To‘xliyev, Z. Sodiqov singari yirik olimlar tom onidan puxta o‘rganilgan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonini akademik tarzda batafsil o‘rgangan, shuningdek, bolalarbop variantini yaratgan olim B. To‘xliyevdir.

Dostonning uchta nusxasi ma’lum. Bular Hirot-Vena (uyg‘ur yozuvida); Qohira va Namangan (arab yozuvida) nusxalari. Dastlab, 1947-yilda dostonning 3 ta nusxasini qiyosiy o‘rganib, tanqidiy matnini yaratgan turk olimi R.R. Aratdir. O‘zbek olimlaridan Qayum Karimov 3 ta nusxani solishtirgan holda, 1971-yili “Qutadg‘u bilig”ning tanqidiy matnini tayyorladi va nashr ettirdi.

O‘zbek adabiyotshunosligining yetuk vakillaridan biri, professor B. Qosimov “Adab ul-muluk” atamasini “Qutadg‘u bilig” asarining siyosiy-axloqiy mohiyatini ifodalovchi timsollardan

biri sifatida talqin qiladi. U bu atamani asarning mazmunini anglatadigan obrazli ta’rif deb hisoblaydi va uning tarixiy qo‘lyozmalarda nom sifatida uchramasligini alohida qayd etadi<sup>1</sup>.

Xuddi shuningdek, Q. Karimov “Shohnoma-yi turkiy” atamasini asarning davlat boshqaruvi, hukmdor fazilatlari, adolat, maslahat kabi bo‘limlari bilan bog‘lab, uni adabiy epitet sifatida izohlaydi. Unga ko‘ra, bu ibora asarning mavzu doirasi va ideallashtirilgan obrazlarini aks ettirishga xizmat qilgan bo‘lib, tarixiy nom emas, balki majoziy ifodadir<sup>2</sup>.

Mazkur masalaga adabiy-madaniy yondashuv bilan qaragan R. Rahmonov esa bu nomlarni xalq orasida asarga bo‘lgan yuksak e’tibor natijasida yuzaga kelgan obrazli ta’riflar deb biladi. U bu iboralarni ilmiy asoslangan tarixiy nomlar emas, balki keyinchalik yuzaga kelgan badiiy-yig‘iq ifodalar sifatida izohlaydi<sup>3</sup>.

Shu asosda aytish mumkinki, “Qutadg‘u bilig”ning yuqorida zikr etilgan nomlar bilan atalishi ko‘proq asarning mazmuniy boyligini ta’riflashga qaratilgan madaniy-hunarmandona yondashuv bo‘lib, ular tarixiy nom sifatida emas, balki so‘z san’atining yuksak namunasi sifatida qaralishi lozim.

Nasriy muqaddimada yana bir muhim jihat mavjudki, u faqat madhiya bilan cheklanmay, asarning asosiy qahramonlari haqida qisqacha xabar beradi: Kuntug‘di (adolat timsoli), Oyto‘ldi (davlat ramzi), Ug‘dilmish (aql timsoli), Ozg‘urmish (qanoat timsoli). Bu obrazlar keyinchalik dostonning asosiy qismida sahnaga chiqib, davlatni boshqarishda qanday fazilatlar zarurligini muhokama qiladi.



1-rasm. “Qutadg‘u bilig” qahramonlari: Adolat, Davlat, Aql va Qanoat timsollari

She’riy muqaddima esa 77 baytdan iborat bo‘lib, nasriy muqaddimada bayon etilgan mazmunlar she’riy ohangda takrorlanadi. Bu qismda ham Allohga hamd, Payg‘ambar va sahobalarni madh qilish, hukmdorni ulug‘lash, kitob nomining ko‘p variantlari zikr etiladi. She’riy muqaddima o‘zining badiiy obrazlari, aruz vaznida bitilgan musiqiyligi bilan ajralib turadi.

<sup>1</sup> Qosimov, B. *Qutlug‘ asar – Qutadg‘u bilig*. Toshkent: Fan nashriyoti. 2001, 12–13-betlar.

<sup>2</sup> Karimov, Q. *Yusuf Xos Hojibning Qutadg‘u biligi*. Toshkent: Fan nashriyoti. 1971, 9-bet.

<sup>3</sup> Rahmonov, R. *O’rta asrlar turkiy adabiyoti*. Toshkent: O‘qituvchi. 1994, 35-bet.

Muqaddima boblari 11 ta qisqacha mavzuga ajratilgan bo‘lib, har biri dostonning g‘oyaviy asoslarini mustahkamlaydi. Quyidagi jadvalda har bir bo‘lim va ularning zamonaviy ahamiyatini tahlil qilingan.

“Qutadg‘u bilig” muqaddimasi tahliliy jadvali

1.1-jadval

<b>№</b>	<b>Bo‘lim nomi</b>	<b>Tarki biy shakli</b>	<b>Asosiy g‘oya / mazmun</b>	<b>Badiiy vosita</b>	<b>Zamona viy talqindagi ahamiyati</b>
1	Nasriy muqaddima	Proza (38 satr)	Allohga hamd, Payg‘ambarga na’t, hukmdorga madh, asar maqsadi	Tasvir, muqoyasa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat	Ruhiy tarbiya, diniy va siyosiy qadriyatlar uyg‘unligi
2	She’riy muqaddima	Nazm (77 bayt)	Nasriy mazmunning she’riy takrorlanishi, stilistik kuchaytirish	Aruz vazni, epitet, tajnis, takrorlar	Badiiy-estetik didni shakllantiruvchi uslubiy maktab
3	“Tangri azza va jalla tavhidi”	Nazm	Yagona Xudoning ulug‘lanishi	Tavhid uslubi, diniy istilohlar	Monoteizm g‘oyasining o‘zbek adabiyotidagi ilk ifodalaridan biri
4	“Payg‘am bar fazli”	Nazm	Muhammad (s.a.v.)ning fazilatlari	Na’t uslubi	Diniy axloqiy idealni targ‘ib qilish
5	“Sahobalar sharafi”	Nazm	To‘rt xalifa –	Tarixiy-religiyaviy tasvir	Islom tarixining badiiy ifodasi

			chohoryorlarni ng ulug‘lanishi		
6	“Bahor va hukmdor madhiyasi”	Nazm	Bahor fasli go‘zalligi va Bug‘raxon madhiyasi	Tabiyat tasviri, madh	Tabiat va hokimiyat uyg‘unligining ramziy ifodasi
7	“Etti sayyora va 12 burj”	Nazm	Kosmik tartib, falakiy qarashlar	Astrono mik obrazlar, qadimiy ilmiy tushunchalar	Ilm-fan va kosmik uyg‘unlik haqida ilk adabiy izohlar
8	“Inson qadri bilim bilan”	Nazm	Bilimnin g ustuvorligi, insonni yuksaltiruvchi kuchi	Nasihat, tafakkur	Bilimga asoslangan jamiyat modeli
9	“Tilning foydasи va zarari”	Nazm	So‘zning kuchi va ehtiyyotkorlik zarurati	Tazod, hikmatli iboralar	Muloqot madaniyati va axborot madaniyati uchun dolzarb
10	“Shoirnin g uzri”	Nazm	Keksalik dan afsus, kitobni qabul qilish iltimosi	Ichki monolog, samimiyl ohang	Shaxsiy hayotdan ibrat, samimiylilik timsoli
11	“Kitob nomi va maqsadi”	Nazm	Kitob nomlari, maqsadi, o‘quvchi uchun foydasи haqida izohlar	Qiyos, ro‘yxatlar, murojaat	Madaniy merosni qadrlash, o‘z tilida fikrlash zarurati

Bu boblarda Yusuf Xos Hojib ilohiyot, falsafa, tilshunoslik, axloqshunoslik, siyosatshunoslik kabi fanlarning zamонавиу тушунчаларига мос келувчи г‘ояларни илгари суради.

Unga ko‘ra, insonning haqiqiy qadri ilm va donishmandlik bilan belgilanadi. Til esa insonni yuksaltiruvchi yoki pasaytiruvchi kuchdir. Shu bois ham nutq madaniyati, axloqiy kamolot, ezgulik vaadolat kabi tushunchalar muqaddimaning asosiy yo‘nalishlarini tashkil etadi.

G‘oyaviy-axloqiy tushunchalar tahlili

1.2- jadval

Tushuncha	Qanday ifodalangan?	Qaysi bo‘limda?	Bugungi ahamiyati
Adolat	Kuntug‘di obraqi orqali	Asosiy qismda ko‘rsatiladi, muqaddimada eslatiladi	Huquqiy madaniyat, rahbar axloqi
Bilim	“Inson qadri bilim bilan o‘lchanadi” g‘oyasi	“Ilm fazilati” bobbi	Rivojlangan jamiyatning poydevori
Nutq madaniyati	“Til bilan balo topiladi” ogohlantirishi	“Tilning foydasi va zarari” bobida	So‘z erkinligi, media savodxonligi
Qanoat	Ozg‘urmish obraqi	Keyingi qismiga tayyoragarlik	Minimalizm va hayotdan mammunlik

Muqaddimaning badiiy-falsafiy ahamiyati shundaki, u asarning faqat rasmiy kirish qismi emas, balki dostonning ruhiy, axloqiy va siyosiy falsafasini ifoda etuvchi muhim bo‘limidir. Undagi obrazlar orqali butun asar davomida ochiladigan konseptual g‘oyalar: adolat, aql, qanoat, davlatparvarlik, ilm va hikmat singari qadriyatlar nazariy asosga ega bo‘ladi.

### XULOSA

“Qutadg‘u bilig” asarining muqaddimasi nafaqat kirish qismi, balki asarning butun g‘oyaviy va badiiy tuzilmasi uchun yo‘l ochuvchi, tayanch va tayyorlovchi asosdir. U o‘quvchini faqat adabiy muhitga emas, balki falsafiy, siyosiy va axloqiy tafakkur makoniga olib kiradi. Asarning muqaddimasida bayon etilgan tushunchalar — adolat, aql, qanoat, til odobi, bilimga intilish — bugungi zamon uchun ham dolzarb ma’naviy yo‘riqnomadir.

Muqaddimada insonning kamoloti faqat nasab, boylik yoki hokimiyat bilan emas, balki bilim, nutq madaniyati va ezgu fazilatlar bilan belgilanadi, degan fikr ilgari suriladi. Ayniqsa, muallifning tilga doir bo‘limlarda nutqning inson sha’niga ta’siri haqida qilgan mulohazalari zamonaliv kommunikatsiya va axloqiy pedagogika uchun ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, muqaddimada falakiyot, astronomiya (burjlar va sayyoralar), biologik muvozanat (bahor fasli), tarixiy-religiyaviy manbalar (sahobalar haqida), hamda siyosiy etika (hukmdorni madh qilishda e'tiborga loyiq jihatlar) kabi ko'plab turli ilm sohalarining sintezi mavjud. Bu esa Yusuf Xos Hojibni o'z davrining ensiklopedik dunyoqarashiga ega adibi sifatida ko'rsatadi.

Zamon o'zgaradi, ammo insoniyat oldida turgan muammolar —adolat va zulm o'rtasidagi kurash, ilmsizlik va ma'rifat to'qnashuvi, so'z va amal o'rtasidagi tafovut — o'z mohiyatini yo'qotmaydi. "Qutadg'u bilig" muqaddimasi aynan shu tub muammolarni ilgari surgan, va ularga fazilat asosida yechim topishni taklif etgan tarixiy adabiy meros sifatida bizga ibratli o'gitlar taqdim etadi.

Bugungi o'quvchi bu muqaddimadan o'zini anglash, axloqiy o'sish, ijtimoiy mas'uliyat va ilmga ehtirom kabi qadriyatlarni yangilab, uni zamonaviy dunyoqarash bilan qayta o'qishi lozim.

**Foydalanimanligi adabiyotlar**

1. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari, T., 1991.
2. To'xliyev B. "O'lmas obidalar", T., 1989.
3. Mallayev N., O'zbek adabiyoti tarixi, T., 1965.
3. Homidiy H., "Ko'hna Sharq darg'alari", T., 1999:
4. Qayumov A., Ishoqov M., Otaxo'jayev A., Sodiqov Q., "Qadimgi yozma yodgorliklar", T., 2000.